

## HOZIRGI XITOIY TILIDA SUFFIKSLAR YORDAMIDA FE'LLARNING YASALISHI HAQIDA



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7352019>

AXUNOV Jasur

Ilmiy maslahatchi: f.f.d.(DSc) Hashimova S.A.

This article is devoted to the study of the formation  
of verbs using suffixes in modern Chinese

Xitoy tilining fe'l suffiksatsiyasi sohasida ikki sinf fe'llarini, ya'ni natijaviy va natijaviy yo'naltirilgan fe'llar sinfini yasovchi formal morfemalarning tavsifini berish lozim.

Fe'l suffiksatsiyasining xususiyati shundaki, u oddiy natijasiz fe'llarning leksik ma'nosini o'zgartirgan holda so'z yasovchi suffikslar mazkur fe'lni natijaga erishishning salohiyatli imkoniyati, qo'shimcha ma'nosi, ba'zida esa harakatni makonda yo'naltirilganlik ma'nosiga ega murakkab fe'llar sinfiga o'tkazadi.

Quyidagi so'z yasovchi formatlar natijaviy fe'llarni yasaydigan maxsuldor morfemalar qatoriga kiradi, masalan: 到 “dao”, 着 “zhao”, 得 “de”, 见 “jian”, 完 “wan”, 了 “liao”, 住 “zhu”, 上 “shang”, 起 “qi”, 回 “hui”, 过 “guo”, 听 “ting”.

Ayrim morfemalar faqatgina suffiks o'rnida qo'llanilgandagina mustaqil ma'noga ega bo'lmaydi, qolgan holatlarda bu morfemalar o'z mustaqil ma'nolariga egadir. (masalan, 时间到了 “shijian dao le” – “... payti yetib keldi” va boshqalar)<sup>1</sup>.

Yana shuni ta'kidlash lozimki, ba'zi natijaviy fe'llarni yasovchi suffikslar, suffiks holatida kelganda ham o'z ma'nosiga qisman ega bo'ladi. Bu esa istisno holat hisoblanadi, chunki suffikslar mustaqil ma'noga ega bo'lmagan morfemalar hisoblanadi, qisman ma'noga ega bo'lgan morfemalar esa yarimaffikslar hisoblanadi. Shunday bo'lsada biz ko'pchilik turli mamlakat xitoyshunoslarining asarlarida ushbu morfemalarni suffiks sifatida uchratamiz. Ulardan ayrimlarini quyida ko'rib chiqamiz.

### 到 “dao” – “kelmoq”, “ketish” suffiksi

到 “dao” – “kelmoq” suffiksi ma'lum natijaga erishish ma'nosini anglatadi. Natijaviylikni umumiy ma'nosini ifodalagan holda maxsuldorlikning yuqori darajasiga ega. Masalan: 等到 “dengdao” (等 “deng” – “kutmoq” + 到 “dao” – “kelmoq”) – kutib olmoq, 找到 “zhaodao” (找 “zhao” – “qidirmoq” + 到 “dao” – “kelmoq”) – “qidirmoq”, 买到 “maidao” (买 “mai” – “sotmoq” + 到 “dao” – “kelmoq”) – “sotib olmoq”, 拾到 “shidao” (拾 “terib olmoq”, “ko'tarmoq” + 到 “dao” – “kelmoq”) – “topmoq”, “yerdan olmoq”, 猜到 “caidao” (猜 “cai” – “shubha qilish” + 到 “dao” – “kelmoq”) – “taxmin qilmoq”, 看到 “kandao” (看 “kan” – “ko'rish” + 到 “dao” – “kelmoq”) – “ko'rmoq”, “sezmoq”, 听到 “tingdao” (听 “eshitish” + 到 “dao” – “kelmoq”) – “eshitmoq”, 感觉到 “ganjuedao” (感觉 “ganjue” – “his”, “tuyg'u” + 到 “dao” – “kelmoq”) – “his qilmoq”, 摸到 “modao” (摸 “paypastlamoq” + 到 “dao” – “kelmoq”) – “paypastlab topmoq”<sup>2</sup>.

### 着 “zhao” suffiksi

<sup>1</sup> Горелов В.И. «Лексикология китайского языка» Москва. 1984. – С.76.

<sup>2</sup> Яхонтов С. Е. Категория глагола в китайском языке. – Л. 1957. - С. 98.

着 “zhao” suffiksini 到 “dao” – “kelmoq” suffiksining sinonimi deb to‘la ishonch bilan aytish mumkin. U ham natijaviylikning umumiy ma‘nosini ifodalaydi. Aynan shuning uchun maskur suffiks yordamida yasalgan fe‘llar natijaviy fe‘llarning ko‘p sonli guruhini tashkil etadi.<sup>3</sup> Masalan: 等着 “dengzhao” (等 “zheng” – “kutmoq” + 着 “zhao”) – kutib olmoq, 猜着 “caizhao” (猜 “cai” – “taxmin qilmoq” + 着 “zhao” – “izlamoq”) – “javobini topmoq”, “javobini bilmoq”, 着 “zhaozhao” (“zhao” – “qidirmoq”, “izlamoq” + 着 “zhao”) – “topmoq”, 点着 “dianzhao” (点 “dian” – “soat” + 着 “zhao”) – “olov yoqmoq”, 累着 “leizhao” (累 “lei” – “charchagan” + 着 “zhao”) – “holdan toymoq”, 查着 “chazhao” – “lug‘atdan topmoq” (查 tekshirmoq + 着 “zhao” – “izlamoq”).

得 “de” suffiksi to‘liq ravishda 到 “dao” suffiksining sinonimi hisoblanadi. Li Jinzi o‘zining olib borgan tadqiqotlarida shuni aniqlaganki, o‘rta asr xitoy romanshunosliligida ham bu ikki morfema bir-birini o‘rnida to‘liq qo‘llanuvchi natijaviylikni ifodalovchi morfemalar hisoblangan.

Hozirgi zamon xitoy tilida 到 “dao” – “kelmoq” suffiksi maxsuldor suffiks hisoblanmaydi, 得 “de” va 到 “dao” suffikslarining asosiy farqi ham ana shundadir.<sup>4</sup> Shu sababli biz hozirgi zamonaviy xitoy tilida 得 “de” suffiksi yordamida yasalgan hamda qo‘llanadigan so‘zlarni juda oz miqdorda uchratamiz.

Masalan: 听得 “tingde” (听 “eshitmoq” + 得 “de”) – “eshitib qolmoq”, 学得 “xuede” (学 “o‘qimoq”, “o‘rganmoq” + 得 “de”) – “o‘rganib olmoq”, 看得 “kande” (看 “kan” – “ko‘rmoq” + 得 “de”) – “ko‘rib qolmoq”, 感得 “gande” (感 “gan” – “his qilmoq” + 得 “de”) – “his etish”, 过得 “guode” (过 “guo” – “o‘tgan zamon ko‘rsatgichi” + 得 “de”) – “boshdan o‘tkazgan”, 感得 “gande” (感 “his qilmoq”, “sezmoq” + 得 “de”) – “his qilmoq”.

#### 见 “jian” (ko‘rmoq) suffiksi

见 “jian” (ko‘rmoq) suffiksi” natijaga erishish jarayonida insonning his etish a‘zolari asosiy o‘rinda turishini ifodalaydigan so‘zlarni yasaydi.

Masalan: 看见 “kanjian” (看 “kan” – “qaramoq” + 见 “jian” ko‘rmoq) – “ko‘rib qolmoq, uchratmoq”, 听见 “tingjian” (听 “ting” – “eshitmoq” + 见 “jian” – “ko‘rmoq”) – “eshitib qolmoq”, 梦见 “mengjian” (梦 “men” – “tush”, “tushga kirmoq” + 见 “jian” ko‘rmoq) – “tushida ko‘rmoq”<sup>5</sup>.

完 “wan” (tugatmoq), 成 “cheng” (..ga aylanmoq), 好 “hao” (yaxshi) suffikslari quyidagi ma‘nolarni anglatadi: birinchisi – yakuniy natijaga erishishni, ikkinchisi – muvaffaqiyatli natijaga erishilganlikni, uchinchisi esa – ijobiy natijaga erishilganlik ma‘nolarini anglatadi. Masalan:

做完 “zuowan” (做 “zuo” – “qilmoq” + 完 “wan” – “tugatmoq”) – “bajarib bo‘lmoq” (完 “wan” mustaqil ma‘noga ega bo‘lgan morfema bo‘lsada, ammo mustaqil holda qo‘llanmaydi);

写完 “xiewan” (写 “xie” – “yozmoq” + 完 “wan” – “tugatmoq”) – “yozib tugatmoq”;

改成 “gaicheng” (改 “gai” – “o‘zgartirmoq” + 成 “cheng” – “o‘ngidan kelmoq”) – “to‘g‘irlamoq”, “qayta ishlamoq”;

变成 “biancheng” (变 “bian” – “o‘zgarimoq” + 成 “cheng” – “muvaffaqiyatli chiqmoq”) – “boshqa narsaga aylanmoq”, “o‘zgarimoq”<sup>6</sup>;

培养成 “peiyangcheng” (培养 “peiyang” – “o‘stirmoq”, “ulg‘aytirmoq” + 成 “cheng”) – “tarbiyalamoq”, “ulg‘aytirmoq”<sup>7</sup>;

<sup>3</sup> Горелов В.И. «Лексикология китайского языка» Москва. 1984 г. - С.77.

<sup>4</sup> Яхонтов С. Е. Категория глагола в китайском языке. – Л. 1957. – С.99.

<sup>5</sup> Горелов В.И. Лексикология китайского языка. – Москва. 1984. – С.78.

<sup>6</sup> 汉俄词典. – 北京, 1988 年.

<sup>7</sup> Яхонтов С. Е. Категория глагола в китайском языке. – Л. 1957. – С.100.

做好 “zuohao” (做 “zuo” – “qilmoq” + 好 “hao” – “yaxshi”) – “tugatmoq”, “bajarib bo‘lmoq”;

坐好 “zuohao” (坐 “zuo” – “o‘tirimoq” + 好 “hao” – “yaxshi”) – “qulay o‘tirib olish”;

补好 “buhao” (补 “bu” – “tuzatmoq”, “yamamoq” + 好 “hao” – “yaxshi”) – “yamamoq”, “yamoq solib”, “tuzatmoq”<sup>8</sup>.

了 “liao” **suffiksi** imkoniyatli natijaga erishish yoki o‘zgacha qilib aytganda, maskur harakatni amalga oshirish mumkinligi haqidagi taxminni o‘z ichiga qamrab oladi. Bu suffiksga xos bo‘lgan modallik qo‘shimcha ma’no aynan shu suffiks yasayotgan fe’llarning funksional xususiyatini belgilab beradi. Bu xususiyat 得 “de” (不 bu) infiksi yordamida yasaladigan harakatni amalga oshirish imkoniyatini yoki imkonsizligining modal shaklida ishlatilishidan iborat. Masalan:

吃得(不)了 “chide” (“bu”) liao – “yeyish mumkin” (mumkin emas);

坐得(不)了 “zuode” (“bu”) liao – “o‘tirish mumkin” (“mumkin emas”);

取得(不)了 “qude” (“bu”) liao – “borish mumkin” (“mumkin emas”);

跑得(不)了 “paode” (“bu”) liao – “qochish mumkin” (“mumkin emas”);

做得(不)了 “zuode” (“bu”) liao – “bajarish mumkin” (“mumkin emas”);

改得(不)了 “gaide” (“bu”) liao – “tuzatish, o‘zgartirish mumkin” (“mumkin emas”).

住 “zhu” (**yashamoq**) **suffiksi** erishilgan natijani mustahkamlanishini anglatadi, alohida holatlarda harakatning tugaganligini anglatadi. Masalan:

记住 “jizhu” (记 “ji” – “eslamog” + 住 “zhu” – “...da yashamoq”) – “yodda tutmoq”, “eslab qolmoq”;

忍住 “renzhu” (忍 “ren” – “chidamoq” + 住 “zhu” – “...da yashamoq”) – “chidamoq”, “bardosh bermoq”;

吸引住 “xiyinzhu” (吸引 “xiyin” – “jalb qilmoq” + 住 “zhu” – “...da yashamoq”) – “e’tiborni jalb etmoq”;

站住 “zhanzhu” (站 “zhan” – “bekat” + “zhu” – 住 “zhu” – “...da yashamoq”) – “to‘htamoq”;

停住 “tingzhu” (停 “ting” – “to‘htash” + 住 “zhu” – “...da yashamoq”) – “to‘htamoq”;

拿住 “nazhu” (拿 “na” – “olmoq” + 住 “zhu” – “...da yashamoq”) – “ushlamoq”, “ushlab qolmoq”<sup>9</sup>;

米惑住 “mihuo zhu” (米惑 “mihuo” – “yo‘qolib qolmoq” + 住 “zhu” – “...da yashamoq”) – “hayratga tushmoq”;

Yuqorida keltirilgan natijaviy fe’llarni yasaydigan maxsuldor suffikslardan tashqari, xitoy tilida natijaviy yo‘naltirilgan fe’llarni yasaydigan suffikslar ham mavjud bo‘lib, ular ham so‘z yasalishida maxsuldor morfemalar hisoblanadi. Bularga: 上 shang, 下 xia, 进 jin, 出 chu, 过 guo, 起 qi, 回 hui, 开 kai va boshqa so‘z yasovchi formatlar kiradi. Ulardan ayrimlari bilan tanishib chiqamiz.

上 “shang” **suffiksi** yuqoriga yo‘nalganlik ma’nosini ifodalaydi. Bu suffiks yuqori darajada mahsuldorligi bilan ajralib turadi va ko‘p miqdordagi natijaviy yo‘naltirilgan fe’llar qatorini hosil qiladi. Masalan:

走上 “zoushang” (走 “yurmoq” + 上 “shang” – “yuqori”) – yuqoriga ko‘tarilmoq;

跑上 “paoshang” (跑 “pao” – “yugurmoq” + 上 “shang” – “yuqori”) – “yuqoriga chopib chiqmoq”;

跨上 “kuashang” (跨 “kua” – “qadam tashlamoq” + 上 “shang” – “yuqori”) – “ot minmoq”.

<sup>8</sup> 汉俄词典。– 北京, 1988年.

<sup>9</sup> 现代汉语词典。– 北京 1979.

下 “xia” suffiksi pastga tomon yo‘nalganlik ma’nosini ifodalaydi. Bu ham maxsuldor suffiks hisoblanadi. Masalan:

走下 “zouxia” (走 “zuo” – “yurmoq” + 下 “past”, “quyi”) – “pastga tushmoq”;

跑下 “paoxia” (跑 “yugurmoq” + 下 “past”, “quyi”) – “pastga chopib tushmoq”;

爬下 “paxia” (爬 “pa” – “xia” – “sirg‘anish” + 下 “past”, “quyi”) – “sirg‘alib tushmoq”;

放下 “fangxia” (放 “fang” – “qo‘ymoq” + 下 “past”, “quyi”) – “tushurmoq”, “pasaytirmoq”, “qo‘ymoq”<sup>10</sup>.

进 “jin” suffiksi ichkariga tomon harakatni, 出 “chu” suffiksi tashqariga tomon harakatni ifodalaydi. Masalan:

走进 “zoujin” (走 “zuo” – “yurmoq” + 进 “jin” – “ichkariga yo‘nalish”) – “ichkariga kirmoq”;

跑进 “paojin” (跑 “pao” – “yugurmoq” + 进 “jin” – “ichkariga yo‘nalish”) – “yugurib kirmoq”;

爬进 “pajin” (爬 “pa” – “emaklamoq” + 进 “jin” – “ichkariga yo‘nalish”) – “emaklab kirmoq”;

放进 “fangjin” (放 “fang” – “joylamoq” + 进 “jin” – “ichkariga yo‘nalish”) – “qo‘ymoq”;

运进 “yunjin” (运 “yun” – “olib kelmoq” + 进 “jin” – “ichkariga yo‘nalish”) – “olib kelmoq” (transport orqali olib kelmoq);

走出 “zouchu” (走 “zou” – “yurmoq” + 出 “chu” – “tashqariga yo‘nalish”) – “tashqariga chiqmoq”<sup>11</sup>;

跑出 “pochu” (跑 “pao” – “yugurmoq” + 出 “chu” – “tashqariga yo‘nalish”) – “yugurib chiqib ketmoq”;

爬出 “pachu” (爬 “pa” – “emaklamoq” + 出 “chu” – “tashqariga yo‘nalish”) – “sudralib chiqmoq”;

开出 “kaichu” (开 “kai” – “ochmoq” + 出 “chu” – “tashqariga yo‘nalish”) – “...da bormoq” (masalan poezdda);

运出 “yunchu” (运 “yun” – “harakatlanmoq” + 出 “chu” – “tashqariga yo‘nalish”) – “olib chiqmoq”;

起 “qi” suffiksi “yuqoriga ko‘tarilish”, 回 “hui” suffiksi “ortga harakat”, 过 “guo” suffiksi “orqali” harakat ma’nolarini anglatadi. Masalan:

飞起 “feiqi” (飞 “fei” – “uchmoq” + 起 “qi” – “ko‘tarilmoq”) – “uchib ketmoq”;

站起 “zhanqi” (站 “zhan” – “bekat” (transport bekat) + 起 “qi” – “ko‘tarilmoq”) – “turmoq”, “ko‘tarilmoq”;

坐起 “zuoqi” (坐 “zuo” – “o‘tirmoq” + 起 “qi” – “ko‘tarilmoq”) – “o‘tirib olmoq” (yotgan holatdan);

举起 “juqi” (举 “ju” – “ko‘tarmoq” + 起 “qi” – “ko‘tarilmoq”) – “ko‘tarish”;

走过 “zouguo” (走 “zou” – “yurmoq” + 过 “guo”) – “kesib o‘tmoq”;

飞过 “feiguo” (飞 “fei” – “uchmoq” + 过 “guo”) – “uchib o‘tmoq”;

游过 “youguo” (游 “you” – “sayohat qilish” + 过 “guo”) – “suzib o‘tmoq”;

翻过 “fanguo” (翻 “fan” – “o‘girilmoq” + 过 “guo”) – “o‘girmoq”;

<sup>10</sup> 现代汉语词典。–北京, 1979.

<sup>11</sup> 现代汉语词典。–北京, 1979.

跑过 “paoguo” (跑 “pao” – “yugurmoq” + 过 “guo”) – “yugurib o’tmoq”;  
爬过 “paguo” (爬 “pa” – “sudralmoq” + 过 “guo”) – “sudralib o’tmoq”.  
走回 “zouhui” (走 “zou” – “yurmoq” + 回 “hui” – “qaytib kelmoq”) – “ortga qaytmoq”;  
跑回 “paohui” (跑 “pao” – “yugurmoq” + 回 “hui” – “qaytib kelmoq”) – “yugurib qaytmoq” ;  
退回 “yuihui” (退 “yui” – “bekor qilmoq” + 回 “hui” – “qaytib kelmoq”) – “orqaga chekinmoq” ;  
飞回 “feihui” (飞 “fei” – “uchmoq” + 回 “hui” – “qaytib kelmoq”) – “orqaga uchmoq”;  
运回 “yunhui” (“yun” – “harakatlanmoq” + 回 “hui” – “qaytib kelmoq”) – qaytib olib bormoq”<sup>12</sup>.

Natijaviy yo‘naltirilgan fe’llarni yasovchi suffikslarning o‘ziga xosligi shundaki, ular makondagi harakat g‘oyasi bilan bog‘liq bo‘lmagan harakatni anglatayotgan verbal bo‘lmagan morfemalarga qo‘shilishidir. Bunday holatlarda ular natijaga erishishning potensial imkoniyatining qo‘shimcha ma‘nosiga ega bo‘lgan natijaviy fe’llarni yasaydi.

Yuqorida aytib o‘tganizmizdek, xitoy tilida so‘z yasashda affiksatsiyaning suffiks turi mahsuldor hisoblanadi. Lekin ba‘zi bir prefikslar ham fe’l yasashda ishtirok etadi. Bularning bularning ba‘zilari bilan tanishib chiqamiz.

**打 “da” prefiksi.** Yapo‘niyalik sinolog Todo Akiyasu 打 “da” da morfemasini ba‘zi bir fe’llarni yasovchi, ayniqsa harakatni bildiruvchi fe’llarni yasovchi prefiks deb hisoblaydi. 打 “da” da morfemasi keng ma‘no diapazoniga ega, ammo maskur turdagi leksik birliklarda u desemantizatsiyaning uni prefiksial morfema sifatida qabul qilinish darajasiga yetmadi. Maskur holatda biz bu morfemani qoshma so‘zning identik komponenti deb hisoblasak to‘g‘riroq bo‘ladi.

Masalan:

打听 “dating” (打 “da” + 听 “ting” – “eshitmoq”) – “so‘ramoq”, “bilmoq”, “habardor bo‘lmoq”;

打扫 “dasao” (打 “da” + 扫 “sao” – “tozalamoq”) – “supurmoq”, “yig‘ishtirmoq”;

打搅 “dajiao” (打 “da” + 搅 “halaqit bermoq”) – “halaqit bermoq”, “bezovta qilmoq”.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI (REFERENCES)

1. Горелов В.И «Лексикология китайского языка». - Москва. 1984 г.
2. 陆志韦。“汉语的构词法”。北京，1964年。
3. 汉俄词典。北京，1988年。
4. 现代汉语词典。-北京 1979.
5. Коротков Н. Н. Основные особенности морфологического строя китайского языка – Москва, 1968.
6. Степанова М.Д. Словообразование немецкого языка. – М., 1953.
7. 任学良。汉语造词法。-北京，1981年。
8. Яхонтов С. Е. Категория глагола в китайском языке. – Л. 1957.
9. С.А.Насирова (2021). Политическая метафора (на примере материала по кадровой политике современной КНР). In Resent Scientific Investigation (pp. 69-73).
10. Хашимова, С. А. (2020). ОСОБЕННОСТИ ОБРАЗОВАНИЯ РЕЗУЛЬТАТИВНЫХ ГЛАГОЛОВ ПРИ ПОМОЩИ СУФФИКСАЦИИ В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. In Страны. Языки. Культура: сборник материалов XI-й международной научно-практической конференции/Под ред. проф. Абуевой НН Махачкала: ДГТУ. 391 с (p. 361).

<sup>12</sup> 现代汉语词典。-北京，1979.



11. Хашимова, С. А. (2020). Особенности образования неодушевленных существительных при помощи суффиксации в современном китайском языке. *Modern Oriental Studies*, 2(2), 34-46.
12. Nasirova, S. A. (2019). Modification of semantics of social terms of the modern Chinese language. *Opción: Revista de Ciencias Humanas y Sociales*, (24), 260-273.
13. Хашимова, С. А. (2022). АГГЛЮТИНАТИВНАЯ ОСОБЕННОСТЬ СУФФИКСАЦИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 196-202.
14. Hashimova, S. A., & Nasirova, S. A. (2021). FEATURES OF FORMING OF ANIMATED NOUNS WITH THE AFFIXES IN MODERN CHINESE LANGUAGE. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(04), 1-10.
15. Насирова, С. А. (2020). Генезис общественно-политической терминологии китайского языка через призму истории китайской дипломатии. *Modern Oriental Studies*, 2(2), 22-33.
16. Хашимова, С. А. (2022). О НЕКОТОРЫХ ОСОБЕННОСТЯХ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОГО АСПЕКТА КОММУНИКАЦИИ (НА ПРИМЕРЕ КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА). *SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 1(1), 85-91.
17. Хашимова, С. А. (2022, September). ОБРАЗОВАНИЕ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ С ПОМОЩЬЮ АФФИКСАЦИИ В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. In *E Conference Zone* (pp. 5-10).
18. Abdullayevna, H. S. (2020). Peculiarities of the formation of animated nonsignificant using suffixing in the modern chinese language. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(5), 1504-1511.
19. Хашимова, С. А. (2022). ОБРАЗОВАНИЕ ЧИСЛИТЕЛЬНЫХ ПРИ ПОМОЩИ АФФИКСАЦИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. *World scientific research journal*, 7(1), 20-23.
20. Насирова, С. А., Хашимова, С. А., & Рихсиева, Г. Ш. ВЛИЯНИЕ ПОЛИТИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ КИТАЯ НА ФОРМИРОВАНИЕ ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ. *Ответственный редактор*, 162.
21. NS Abdullayevna. 上合组织国家的科学研究: 协同和一体化。上合组织国家的科学研究: 协同和一体化 · 87, 0
22. С.А.Насирова. Институт евнухов в древнем Китае: причины возникновения и особенности (2022). *Фундаментальные и прикладные научные исследования: актуальные вопросы, достижения и инновации*. С. 187-188.
23. NS Abdullayevna. Языковая политика в Китае: идентификация общественно-политической терминологии (2019). In *КИТАЙСКАЯ ЛИНГВИСТИКА И СИНОЛОГИЯ* 3,384,2019